



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 163 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA VALYUTA OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH



Safarov Alisher Ibrohim o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va bank ishi kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0009-0003-5890-3982

Annotatsiya: Maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish xususiyatlari, valyuta operatsiyalarining ahamiyati va valyuta bitimlarini amalga oshirish ko'rib chiqilgan. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq, xorijiy valyutaga oid operatsiyalarni hisobga olish, tashqi iqtisodiy faoliyatda hisobni yuritish tamoyillari o'rganilgan. O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun eksport va import operatsiyalarini hisobga olishni tashkil etish bo'yicha bazi takliflar kiritilgan.

Kalit so'zlar: tashqi iqtisodiy faoliyat, eksport, import, valyuta operatsiyalari.

Abstract: This article examines the features of regulating foreign economic activity of business entities, the importance of foreign exchange operations, and the execution of currency transactions. In accordance with International Financial Reporting Standards (MHXS), the accounting of foreign currency transactions and principles of maintaining records in foreign economic activity have been studied. Some proposals have been made regarding the organization of accounting for export and import operations for business entities in Uzbekistan.

Key words: foreign economic activity, export, import, foreign exchange operations.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности регулирования внешнеэкономической деятельности хозяйствующих субъектов, значение валютных операций и проведение валютных сделок. Изучены принципы учета валютных операций в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности (MHXS), а также ведение учета во внешнеэкономической деятельности. Внесены некоторые предложения по организации учета экспортно-импортных операций для хозяйствующих субъектов в Узбекистане.

Ключевые слова: внешнеэкономическая деятельность, экспорт, импорт, валютные операции.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning¹ uchinchi bobida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish yo'nalishiga asosan bank tizimini yanada isloh qilish vazifasi qo'yilgan bo'lib, u orqali davlatning moslashuvchan pul-kredit siyosatini shakllantirish, milliy valyutaning barqarorligiga erishish, valyuta bozorini erkinlashtirish hamda shu orqali banklar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar turlarini kengaytirish vazifalari qo'yilgan. Mamlakatda valyuta munosabatlarini rivojlantirish, tijorat banklari va boshqa moliya muassasalarini xalqaro moliya bozorlaridagi ishtiroklari uchun sharoitlarni yaratish, milliy valyuta bozorini barqaror ishlashini ta'minlash, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishda import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqaruvchi subyektlar o'rtasida xalqaro investitsiyalarni kengroq jalb qilish mamlakatda milliy valyuta bozorini va zamonaviy valyuta operatsiyalarini shakllantirishni taqazo etadi. Shu maqsadda, O'zbekistonda valyuta operatsiyalarini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"



rivojlantirishning muhim vazifasi hisoblanadi. Xususan, tijorat banklarida valyuta operatsiyalari daromad olib keluvchi manbalardan biri bo'lib, ko'plab mijozlar iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida yirik loyihalarni amalga oshirishda xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirishadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni o'z vaqtida hisobga olish va tahlil qilish juda muhimdir. Har bir tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonini samaradorlik va effektivlik nuqtai nazaridan nazorat qilish zarur. Eksport yoki import operatsiyalarining samaradorligini baholashda tashkilot moliyaviy jihatdan to'g'ri qaror qabul qilishi zarurdir, bu esa kelajakda tashqi iqtisodiy faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu maqolaning mavzusi dolzarbligini belgilaydi.

MAVZGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlar valyuta operatsiyalarining iqtisodiy o'sishga ta'siri, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishda, investitsiyaviy jozibadorlikni ta'minlashda valyuta operatsiyalarini takomillashtirish zarurati bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan va Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni shakllantirish uchun valyuta operatsiyalariga ko'pgina ta'riflar keltirilgan. Masalan, Selyvanovskiy A.S. "valyuta operatsiyalarini nafaqat valyuta qiymatlari bilan bog'liq bitimlar, balki boshqa operatsiyalar" sifatida ham ko'radi². Yankovskiy N.Ya esa "valyuta operatsiyalarini milliy qonunlar yoki xalqaro kelishuvlar bilan tartibga solingan valyuta qiymatlari bo'yicha bitimlar sifatida ko'rib chiqadi"³.

Boboqulov.T (2007) tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini Markaziy bankning valyuta siyosati doirasida tartibga solishni takomillashtirish masalasini tadqiq qilgan. Uning fikricha, Markaziy bank tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarining miqdorini kunlik nazorat qilib turish zarur. Bundan tashqari, valyuta operatsiyalari bu alohida buxgalteriya hisobining obyekti bo'lib, bu operatsiyalar mulk huquqining o'tishi yoki o'tmasligi bilan, valyuta mablag'larini to'lov vositasi sifatida ishlatish yoki ishlatmaslik bilan, valyuta qiymatlari harakatlanishi bilan bog'liq operatsiyalar sifatida tasvirlanadi. Shuningdek, iqtisodiy adabiyotda valyuta operatsiyalari va xorijiy valyutada amalga oshiriladigan operatsiyalar ikki xil tushuncha sifatida ko'rib chiqiladi: valyuta operatsiyalari va xorijiy valyutada amalga oshiriladigan operatsiyalar o'zni almashtiriladigan tushunchalar bo'lib, shart qilib aytganda, valyuta operatsiyalari xorijiy valyutada amalga oshiriladigan operatsiyalardan kengroq tushuncha hisoblanadi.

Yuqoridagi ta'riflarni tahlil qilish orqali buxgalteriya hisobining obyekti sifatida valyuta operatsiyalarini ikki sub'ekt o'rtasidagi, hisob-kitoblar va to'lovlarning xorijiy valyutada amalga oshiriladigan operatsiyalar sifatida aniqladik, bu bitimlar shartnomalar (kontraktlar) asosida amalga oshiriladi. Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, bu operatsiyalarni buxgalteriya hisobining obyekti sifatida xususiyatlari, hisob-kitoblar va to'lovlar xorijiy valyutada amalga oshiriladi, bu esa ularni tashkil etish uchun xorijiy valyutalar kursini qayta hisoblash va valyuta farqlari hisobini yuritish bilan bog'liq maxsus qoidalarni talab qiladi. Shunday qilib, valyuta operatsiyalarini huquqiy tartibga solish ob'ekti sifatida tasniflash bo'yicha tavsiyalar mavjud:

Joriy xalqaro valyuta operatsiyalari (joriy operatsiyalar);

Kapitalning harakati bilan bog'liq xalqaro valyuta operatsiyalari (kapital operatsiyalari);

Mamlakat ichidagi valyuta operatsiyalari;

Offshor yoki xorijiy valyuta operatsiyalari.

Bundan tashqari, joriy valyuta operatsiyalariga bir nechta kichik guruhlar ajratiladi:

Savdo operatsiyalari, eksport va import tovarlari, ishlar, xizmatlar va nomaterial aktivlar bilan bog'liq tashqi savdo bitimlarini amalga oshirish;

Ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, valyuta operatsiyalarini boshqa tarzda tasniflash kerak. Ular uchta asosiy tasniflash turini taklif qilishadi.

Birinchi tur - obyekt va savdo predmetiga qarab:

Tovarlarning moddiy shaklda sotib olish-sotish operatsiyalari;

Xizmatlar bilan bog'liq sotib olish-sotish operatsiyalari;

Yaratilish faoliyati natijalarini sotib olish-sotish operatsiyalari.

Ikkinchi tur: bank, transport, turizm va sug'urta xizmatlari, shuningdek, vositachilik xizmatlari, ijaraga olish, lizing operatsiyalari, maslahat xizmatlari.

Uchinchi tur - yaratish faoliyati natijalari: litsenziyalar va nou-xau boshqa savdo operatsiyalari⁴.

Ushbu tasniflash, ayniqsa birinchi tur, buxgalteriya hisoboti maqsadlari uchun ko'proq mos keladi, chunki u savdo amalga oshirayotgan obyektlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi va bu, albatta, to'g'ri, chunki bunday yondashuv buxgalteriya axborotining shakllanishini tashkilotning faoliyati xususiyatlariga qarab hisobga olishga imkon beradi.

2 Селивановский А.С. Валютные операции по экспорту и импорту // Бухгалтерский учет, 2018. № 5. С. 66-78

3 Янковский Н.А. Повышение эффективности внешнеэкономической деятельности крупного производственного комплекса. М.: Гардарики, 2016. С. 120.

4 Кутер М.И., Семенцова Т.А., Тхагапсо Р.А. Цели, задачи и особенности анализа внешнеэкономической деятельности организаций // Экономический анализ: теория и практика, 2019. № 1. С. 12-19.



Shunday qilib, buxgalteriya hisoboti maqsadlari uchun valyuta operatsiyalarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiqdir: ishlab chiqarishda valyuta operatsiyalari; savdoda valyuta operatsiyalari; xizmatlar sohasida valyuta operatsiyalari; boshqa sohalarda valyuta operatsiyalari. Ushbu tasniflash to'liq ravishda tashkilotning valyuta operatsiyalarini buxgalteriya hisoboti shakllanishiga qarab faoliyat turiga bog'liq xususiyatlarini hisobga oladi.


O'zbekiston Respublikasining 22.10.2019-yildagi O'RQ-573-sonli "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi haqidagi Qonunida valyuta operatsiyalariga quyidagicha ta'rif beriladi: valyuta qimmatliklariga bo'lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o'tishi bilan bog'liq operatsiyalar, valyuta qimmatliklaridan to'lov vositasi sifatida foydalanish, valyuta qimmatliklarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, jo'natish va o'tkazish, shuningdek rezidentlar va norezidentlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi valyutasidagi operatsiyalar⁵.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishimizni yoritishda analiz, sintez, deduksiya va induksiya usullaridan foydalanildi. Valyuta birjasining mamlakatimizdagi holati tahlil qilinib, asosan mamlakatimiz valyuta bozorida qo'llanilayotgan valyuta operatsiyalari natijalari va eksport - import operatsiyalari hisobi o'rganildi. Ma'lumotlarni tahlil qilish orqali kengroq qilib yoritib berishga harakat qilindi. Natijada muammolar aniqlanib, muammolarga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi.

Tahlil va natijalar


O'zbekiston valyuta bozorida asosan USD/UZS, EUR/UZS, RUB/UZS va CNY/UZS valyuta juftliklari bo'yicha valyutaviy spot savdolari tashkil etilgan. Valyuta bilan asosiy operatsiyalar banklar orqali, shuningdek, banklararo valyuta birjasi orqali amalga oshiriladi. 2023- yilda valyuta bozorida savdolar umumiy hajmi 458,00 trln. so'mni tashkil etib, 2022-yilgi mos ko'rsatkichga (338,18 trln. so'm) nisbatan 35,43 foizga oshdi (1-rasm). 2023-yilda xalqaro miqyosda kuzatilgan qat'iy pul-kredit sharoitida O'zbekiston ichki valyuta bozorida chet el valyutasiga talab taklifdan sezilarli oshishi kuzatildi. 2023-yilda chet el valyutasiga bo'lgan talabning umumiy hajmi 42,5 mlrd dollarga yetib, 2022-yilga nisbatan 16 foizga oshdi. Ushbu talabning 78,6 foizi yuridik shaxslar va 21,4 foizi jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keldi. Ichki valyuta bozorida chet el valyutasidagi umumiy taklif hajmi esa (Markaziy bank intervensiyalarini hisobga olmaganda) 34,4 mlrd dollarni tashkil etib, shundan 14,7 mlrd dollari (43 foizi) xo'jalik yurituvchi subyektlar, 13,5 mlrd dollari (39 foizi) banklar va jismoniy shaxslar hamda 6,2 mlrd dollari (18 foizi) markazlashgan manbalar hisobiga qondirildi (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti, 2023) (1-rasm).



1-rasm. Valyuta bozorida savdolar hajmining qiyosiy dinamikasi, trln. so'md

2023-yilda yuridik shaxslar tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan talab 2022-yilga nisbatan 1,2 barobarga oshishi import hajmi o'sishiga mutanosib holda ro'y berdi. (2-rasm).

⁵ O'zbekiston Respublikasining 22.10.2019 yildagi O'RQ-573-sonli "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi haqidagi qonunida



2-rasm. Tovarlar importi.

2023-yilda jahonda xom ashyo bozorida narxlarning tushishi eksport tushumlarining o'zgarishsiz qolishiga sabab bo'ldi. 2023-yilda jami 22,4 mlrd dollar xorijiy investisiyalar jalb qilindi, shu jumladan 19,5 mlrd dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlar (193 %) o'zlashtirildi. Davlat investisiya dasturi doirasida umumiy qiymati 9,4 mlrd dollar bo'lgan 306 ta loyiha ishga tushishi hisobiga 56 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilishiga erishildi¹⁷. Lekin sof xorijiy investitsiyalar oqimi kamayganligi kuzatildi.

Xorijiy valyutaga oid operatsiyalar hisoboti Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 21 «Valyuta kursining o'zgarishining ta'siri» bilan tartibga solinadi. Standartning maqsadi xorijiy valyuta operatsiyalarini va xorijiy operatsiyalarni moliyaviy hisobotda qanday aks ettirishni belgilashdir. Bundan tashqari, standart moliyaviy hisobotning taqdimot valyutasiga o'tkazish tartibini belgilaydi.

Valyuta operatsiyalari firmalarining buxgalteriya hisobida ikki baholashda aks ettiriladi: xorijiy valyutada va milliy valyutada (so'mda). Qonun hujjatlariga ko'ra, xorijiy valyuta operatsiyasi amalga oshirilgan kundagi kurs bo'yicha milliy valyutaga hisoblanadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 21 «Valyuta kursining o'zgarishining ta'siri»ga ko'ra: kurs farqi - bir valyutani boshqa valyutaga o'zgartirishda bir xil miqdordagi bir valyutaning boshqa valyutalarga qarshi kursi bilan yuzaga keladigan farq ijobiy va salbiy kurs farqlari mavjud.

Avvalo, tashqi iqtisodiy faoliyat hisoboti foydalanuvchilarining manfaatlarini aniqlaymiz. Shunday qilib, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda hisoboti ma'lumotlarini foydalanuvchilari bu ma'lumotlarga qiziqish va ehtiyojmand bo'lgan shaxslardir, eng avvalo: potensial xalqaro sarmoyadorlar va xorijiy hamkorlar, qarz beruvchilar, yetkazib beruvchilar, xaridorlar. Bu tashqi foydalanuvchilar bo'lib, ular moliyaviy jihatdan bevosita tashkilotga bog'liq bo'lgan faoliyatni amalga oshiruvchi hisoboti ma'lumotlaridan foydalanadilar. Shuningdek, hisoboti ma'lumotlaridan soliq organlari, mulkdorlar va tashkilot xodimlari ham foydalanadilar. Foydalanuvchilarga kerak bo'lgan axborot sohalari quyidagi masalalarni o'z ichiga olishi mumkin:

- o'z sarmoyalarini saqlash, oshirish yoki sotish to'g'risida qaror qabul qilish;

- kompaniyaga kredit berish;

- kompaniya bilan savdo rivojlanish istiqbollari.

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyatni hisobga olishda asosiy maqsad - bu kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish, uning ishlab chiqarilgan mahsulotlarini yuksaltirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkilotning imkoniyatlarini oshirishdir. Moliyaviy hisobotlar ishlab chiqiladi, birinchi navbatda, tashkilotning faoliyat natijalarini ko'rish uchun, ikkinchi navbatda esa tashkilotning joriy moliyaviy holatini va uning o'zgarishini hisobot davri davomida ko'rish uchun.

Moliyaviy hisobotning maqsadlari Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS1) «Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish» da aniqlanadi. Asosiy maqsadlari moliyaviy hisobotlarning topshirilishi, tashkilotga xorijiy bozorlarni egallash, xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish, kreditlar olish imkoniyatlarini ochadi. Masalan, xorijiy bankdan kredit olish uchun tashkilot bir qator talablarni bajarishi kerak, ulardan biri - bu auditor tomonidan tasdiqlangan yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish va bu hisobot Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga mos bo'lishi kerak.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni hisobga olish amaliyotida bir qator buxgalteriya hisoboti tamoyillaridan foydalaniladi va umumqabul qilingan buxgalteriya postulatlar mavjud. Buxgalteriya hisoboti postulatlar, Savina S.A. ning fikriga ko'ra, ilmiy asoslangan dastlabki ta'riflar, g'oyalar va qoidalar bo'lib, ular o'quv ilmiy ta'limoti



asosida tashkil etilgan. Zamonaviy terminologiyada ular tamoyillar sifatida tasniflanadi, ularga fundamental va protsedural tamoyillar kiritiladi. Shuning uchun ushbu tushunchalar bir-biriga sinonimdir, shuning uchun darhol buxgalteriya hisoboti tamoyillariga o'tamiz. Bu tamoyillar quyidagilarni o'z ichiga oladi: faoliyatni alohida ajratish tamoyili, pul o'lchovining tamoyili, ikkiyoqlama tamoyili, muhimlik tamoyili, uzluksizlik tamoyili, hisoblash tamoyili, buxgalteriya konservatizmi tamoyili, moslik tamoyili. Shu yerda ikkita eng muhim tamoyilga e'tibor qaratish kerak⁶.

Asosiy tamoyil: hisoblash usuliga ko'ra, ya'ni operatsiyalar (daromad va xarajatlar) natijalari ularning sodir bo'lgan davrida tan olinadi, kutilayotgan kelajakdagi iqtisodiy foydalar emas.

Ikkinchi muhim tamoyil - bu uzluksiz faoliyat, bu esa tashkilotning yaqin kelajakda faoliyatini davom ettirishi kutilganligini anglatadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni hisobga olishda tashkilotga investorlarga, yetkazib beruvchilarga, xaridorlarga va boshqa hamkorlarga uzun muddatli hamkorlikda ishonch hosil qilish imkoniyatini beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni hisobga olishda va moliyaviy hisobotda tashkilotning aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromadlari, xarajatlari, moliyaviy natijalari kabi barcha elementlar bir-biri bilan bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, O'zbekistonda valyuta operatsiyalarini hisobga olish xususiyatlarini tahlil qilib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot natijalarini shakllantirish maqsadida hozirgi paytda valyuta operatsiyalarining aniq ta'rifi mavjud emas. Ushbu masala bo'yicha turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish natijasida ishda valyuta operatsiyalarining buxgalteriya hisobi obyekti sifatida quyidagi ta'rifni taklif qilish mumkin: valyuta operatsiyalari – bu ikki subyekt o'rtasida tuzilgan shartnomalar (kelishuvlar) asosida hisob-kitob va to'lovlar chet el valyutasida amalga oshiriladigan operatsiyalardir. Ushbu ta'rifga ko'ra, ushbu operatsiyalarning buxgalteriya hisobi obyekti sifatidagi o'ziga xos xususiyati – chet el valyutasida amalga oshiriladigan hisob-kitob va to'lovlardir, bu esa ularning hisobini yuritish uchun xorijiy valyuta kurslarini qayta hisoblash va valyuta farqlarini hisobga olish bilan bog'liq maxsus qoidalarga rioya qilishni talab etadi.

Valyuta operatsiyalarining turli xil tasniflarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, bu borada yagona yondashuv mavjud emas. Masalan, «Valyuta tartibga solish va valyutani nazorat qilish to'g'risida»gi qonunda (2019-yil 22-oktyabr holatiga ko'ra o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) keltirilgan tasnif asosan rezidentlar va nerezidentlar o'rtasidagi munosabatlarni ochib beradi. Bundan tashqari, adabiyotlarda valyuta operatsiyalarini ularning huquqiy tartibga solish obyekti asosida tasniflash taklif etiladi. Ba'zi mualliflar esa valyuta operatsiyalarini tasniflash uchun ularni sotib olish va sotish jarayonida ishtirok etuvchi obyektlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqadilar. Ishda bunday tasniflash usulining buxgalteriya hisobi uchun to'g'ri ekanligi ta'kidlanadi, chunki bu yondashuv korxonalarning faoliyat xususiyatlarini hisobga olish va hisob-analitik ma'lumotlarni shakllantirishga imkon beradi. Shu sababli, valyuta operatsiyalarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq deb topildi:

- ishlab chiqarishdagi valyuta operatsiyalari;
- savdodagi valyuta operatsiyalari;
- xizmat ko'rsatish sohasidagi valyuta operatsiyalari;
- boshqa sohalardagi valyuta operatsiyalari.

Valyuta operatsiyalarini buxgalteriya hisobiga olishni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, bu hisob bo'limi davlat tomonidan yetarlicha nazorat qilinadi. Valyuta operatsiyalari bojxona, valyuta va soliq qonunchiligiga bo'ysunadi. Ularning buxgalteriya hisobida aks ettirilish me'yorlari «Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to'g'risida»gi qonun, «Valyuta tartibga solish va valyutani nazorat qilish to'g'risida»gi qonun va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida (MHXS) belgilangan.

Xalqaro hamkorlikka ega bo'lgan va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarga Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan (jumladan, MHXS 1 «Moliyaviy hisobotni taqdim etish», MHXS 21 «Valyuta kursining o'zgarishi ta'siri» va boshqalar) foydalanish tavsiya etiladi. Bu kelajakda xorijiy foydalanuvchilarga eksport va import xizmatlari ko'rsatuvchi korxonaning moliyaviy holati va faoliyat natijalarini yanada obyektiv baholash, shuningdek, aniq valyuta operatsiyasini amalga oshirish bo'yicha iqtisodiy jihatdan foydali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Chunki xalqaro standartlar bo'yicha tuzilgan hisobotning asosiy afzalligi – undagi ma'lumotlarning aniqlik darajasi yuqori bo'lishidir. Har bir hisobot ko'rsatkichi orqasida real xo'jalik operatsiyasi turadi, O'zbekiston standartlariga muvofiq tuzilgan hisobot esa asosan soliqlarga qaratilgan (fiskal xarakterga ega).

6 Савина С.А., Дугина Т.А. Внешнеэкономическая деятельность: Учебно-методическое пособие для подготовки бакалавров. М.: МГПУ, 2015. 120 с.



Mavjud eksport-import operatsiyalarining buxgalteriya hisobi metodikasini o'rganib chiqib, uning hisobini takomillashtirish bo'yicha quyidagi usullarni taklif qilish mumkin.

Tashkilotda har bir import partiyasi bo'yicha analitik hisob yuritilmaydi, bu esa reja bo'limi bilan o'zaro hamkorlikni qiyinlashtiradi hamda har bir import partiyasi bo'yicha tezkor ma'lumot olish imkoniyatini cheklaydi.

Menimcha, import bo'yicha maxsus vedomost joriy qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi, bu ma'lumotlarni alohida shartnoma bo'yicha to'plovchi vedomostga kiritish kerak. Chunki bu juda mehnat talab qiluvchi jarayon bo'lib, tashkilotga import operatsiyalari hisobini yurituvchi alohida buxgalterni shtatga qo'shish tavsiya etiladi.

Eksport xarajatlarining analitik hisobi ham murakkab. Mening fikrimcha, uni mamlakatlar, xaridorlar va to'lov valyutalari bo'yicha yuritish maqsadga muvofiq bo'lib, bu moliyaviy natijalarni yaxshilash va faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, eksport va import operatsiyalari hisobini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

eksport tovarlari yetkazib berilishini nazorat qilish;

shartnomalar o'z vaqtida tuzilishi va ularning barcha shartlari aniq bajarilishini doimiy kuzatib borish;

xorijiy xaridorlar bilan eksport-import tovarlari bo'yicha hisob-kitob holatini nazorat qilish;

sotilgan tovarlarning samaradorlik darajasini aniqlash.

Umuman olganda, ushbu takliflarni inobatga olib, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida tegishli o'zgarishlarni amalga oshirish natijasida moliyaviy natijalar yaxshilanib, ish samaradorligi oshishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi PF – 4947-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3107036?ONDATE=01.05.2021>
2. Селивановский А.С. Валютные операции по экспорту и импорту // Бухгалтерский учет, 2018. № 5. С. 66-78
3. Янковский Н.А. Повышение эффективности внешнеэкономической деятельности крупного производственного комплекса. М.: Гардарики, 2016. С. 120.
4. Кутер М.И., Семенцова Т.А., Тхагапсо Р.А. Цели, задачи и особенности анализа внешнеэкономической деятельности организаций // Экономический анализ: теория и практика, 2019. № 1. С. 12-19.
5. O'zbekiston Respublikasining 22.10.2019 yildagi O'RQ-573-sonli "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi haqidagi qonunida
6. Савина С.А., Дугина Т.А. Внешнеэкономическая деятельность: Учебно-методическое пособие для подготовки бакалавров. М.: МГПУ, 2015. 120 с.
7. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)1-sonli «Moliyaviy hisobotni taqdim etish», 21-sonli « Valyuta kursining o'zgarishi ta'siri ».
8. www.uzrxb.uz , 2023 йил якунлари бўйича "Ўзбекистон республикаси валюта биржаси" АЖ (ЎзРВБ) бозорлари шарҳи
9. <https://www.stat.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
